

**O‘QUV AXBOROTLARI MAZMUNDORLIGINI TA’MINLASHDA DARSNI REJALASHTIRISH VA OLDINDAN LOYIHALASHNING O‘ZIGA XOSLIGI**

*Sh.Rahmonova - ADPI doktranti.*

**Annotatsiya:** Dars rejasi sizni va sizning talabaringizni ma'lum natijalarga erishishingizga asos bo'lishi lozim. Darsni shunday rejalashtirish lozimki uni boshqacha yo'l bilan amalga oshirishga o'rin qolmasin. Har qanday darsning tayanch printsipti rejada aks etishi lozim. Bu printsipti darsni eng yaxshi va oson yo'llar bilan samarali maqsadga erishishni ta'minlashini ko'zda tutadi. Shuning uchun ham dars rejasi qo'yilgan maqsadni amalga oshirish uchun bir qancha elementlarni o'z ichiga olishi lozim.

**Kalit so'zlar:** Maqsad, dars rejasi, modellashtirish, usul, mo'ljalni, tushuncha, element, xatti-harakatlari, ixtiyoriy, sohasi.

O'qituvchi mahorati darsni aniq rejalashtirishda o'z aksini topadi. Darsni shunday rejalashtirish lozimki unda nima qilinishi mo'ljallanayotganligi aniq o'z aksini topsin va boshqacha reja tuzish mumkinligiga o'rin qolmasin. Ba'zan yosh o'qituvchilar va amaliyotga chiqqan talabalar faoliyatida darsni rejalashtirish sohasida xatolarga yo'l qo'yilganligining guvohi bo'lamiz. Yosh o'qituvchilar va talabalar faoliyatida yo'l qo'yilayotgan xatolarni quyidagi guruhlarga bo'lish mumkin.

1. Maqsadda aniqlikning yo'qligi. Ya'ni talabalar aslida nima qilishlari va nimani o'rganishlari aniq belgilanmaydi.

2. Ta'lim maqsadining talablari darsning natijasi bilan to'g'ri kelmagan hollar bo'ladi.

3. O'rganish uchun tavsiya qilingan materiallar darsning maqsadiga to'g'ri kelmaydi.

4. O'qituvchi berayotgan yo'llanmalar talabaning darsda bilimlarni samarali o'rganishini ta'minlamaydi.

5. Dars rejasida ko'rsatilgan talabalarning xulqlri dars maqsadini amalga oshirishning samarali vositasi bo'la olmaydi.

Umuman tuzilgan rejalar qayta ko'rib chiqilishi va xatolarni bartaraf etish ustida ishlanishi lozim.

Dars rejasi sizni va sizning talabaringizni ma'lum natijalarga erishishingizga asos bo'lishi lozim. Darsni shunday rejalashtirish lozimki uni boshqacha yo'l bilan amalga oshirishga o'rin qolmasin. Har qanday darsning tayanch printsipti rejada aks etishi lozim. Bu printsipti darsni eng yaxshi va oson yo'llar bilan samarali maqsadga erishishni ta'minlashini ko'zda tutadi. Shuning uchun ham dars rejasi qo'yilgan maqsadni amalga oshirish uchun bir qancha elementlarni o'z ichiga olishi lozim. Buni quyidagicha ko'rsatish mumkin.

1. Taxminiy axborot: Bu axborot rejaning chegaralarini va bo'limlarini belgilab beradi, ya'ni: a) dars kimga mo'ljallangan, talabalarning darajalari; b) ma'lum o'quv predmeti; v) darsning qismlari; g) o'qituvchining ismi sharifi.

2. Reja qismlari: Rejaning qismlari darsda belgilangan maqsadni talabalar tomonidan o'zlashtirilishi va o'qituvchining ta'sirini, talab qilingan material va baholash yo'llarini aks ettirgan bir necha bosqichlarni o'z ichiga oladi. Bu bosqichlarning aniq algoritmi dars loyihasida ko'rsatiladi.

Doktor Madlin Xunter tadqiqotlari shuni ko'rsatadiki, darsni rejalashtirish va ishlab chiqishda aniq metodologiyaga asoslanish zarur. Tadqiqotlar davomida olim o'qituvchining ish turi, predmet yoki talabalarning qandayligidan katiy nazar darsni takomillashtirishning 8 elementi mavjudligini ko'rsatadi.

Hozirga qadar ko'pgina maktab va kollejlarda dars loyihasini tuzish, ta'lim maqsadini belgilash yoki ta'limni tashkil etish yo'llari kabi elementlar vaqt sinovidan o'tdi.

**“Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim, fan, innovatsiya va ilmiy tadqiqotlarning salmoqli natijalari: muammo va yechimlar” mavzusida Respublika ilmiy anjuman to’plam materiallari 2024-yil 19-aprel kun.**

Dars loyihasining har bir elementida ma’lum bir malakalarni shakllantirish maqsadi bo’lib, ularni bir qancha ta’lim metodlari talablari va amaliy ishlar vositasida amalga oshiriladi.

**Dars loyihasida quyidagilarga e’tibor qaratish zarur:**

1. Mo’ljalni belgilash-Talabalar diqqatini jalb qiluvchi faoliyatni aniqlash. Tarqatma materiallar, xattaxtada yozib qo’yiladigan savollar, qo’yiladigan muammolar va hokazo.

2. Maqsad - talabalar bugun nimani o’rganadi va natijada qanday ishni bajara oladi(malaka). Ular o’qituvchiga bugungi o’rganganlari asosida ma’lum bir faoliyat to’rini bajarib ko’rsata olishlari lozim. Bu vazifani qanday bajarishni o’qituvchi belgilaydi.

3. Kirish - o’qituvchi talabalar o’rganishi lozim bo’lgan materialni belgilaydi, kontseptsiyani ishlab chiqadi va malakalarni qanday qulay egallash yo’llarini ko’rsatadi.

4. Modellashtirish (nomoyish qilish) - o’qituvchi o’rganilayotganlarni va natijada o’quvilar egallashi lozim bo’lgan ko’nikmani grafik shaklda ko’rsatadi yoki namoyish qiladi.

5. Amaliy boshqaruv-o’qituvchi talabalar faoliyatini boshqaradi. Ularning malaka egallashlari uchun qadamma - qadam raxbarlik qiladi. Talabalarni eshitish, ko’rish sezgilarini ishga soladi va faoliyatga kirishishlari uchun imkoniyat yaratadi.

6. Tushunchalarni tekshirish-o’qituvchi turli savollar yordamida talabalarning qanchalik tushunganlarini dars davomida tekshirib, olg’a borish mumkinmi yoki yo’qligini aniqlaydi. Agar olg’a borish mumkin bo’lmasa orqaga qaytib bajariladigan ishlarni belgilaydi.

7. Mustaqil amaliyot-o’qituvchi talabalarni o’zlarini tekshirib ko’rishlari uchun imkoniyat yaratadi. Talabalar mustaqil o’zlari o’rganganlarini tekshirib ko’radilar.

8. Darsni tugallash - Darsni xulosalash oldida talabalar o’z ishlarini, o’rganganlarini o’qituvchiga so’zlab berish, namoyish qilish orqali ko’rsatadilar.

**Amaliy mashqlar yoki rolli o’yin. Topshiriq.**

1. O’z mutaxassisligingiz yuzasidan mavzu tanlang.

2. Mo’ljalni belgilang:

a) talabalarga nimani o’rgatmokchisiz?

b) qanday tarqatma materiallar tayyorlaysiz?

v) qanday savollar, muammolarni o’rtaga tashlamokchisiz?

3. Maqsadni aniqlang.

a) talabalar nimani o’rganadi, natijada qanday ishni bajara oladi?

4. Kirish.

a) dars materialini belgilang.

b) kontseptsiyani ishlab chiqing.

5. Modellashtirish.

O’quvchilar egallashi lozim bo’lgan faoliyat to’rini ko’rsating yoki grafikasini chizing.

6. Amaliy boshqaruv.

O’quvchilarni malakaegallashlarini qadamlarga bo’lib chizing va boshqaring.

7. Tushunchalarni tekshirish uchun savollar tayyorlang.

8. Mustaqil amaliyot yo’lini belgilang.

9. Darsni tugallang.

Talabalar o’rganganlarini namoyish qilsinlar.

Darsni o’tkazish modeli. Darsni o’tkazish modelini uchta kategoriyaga bo’lish mumkin.

1. Ko’rgazmali izchillik.

2. Dars sxemasi.

3. Asosiy texnologik karta.

Bularog`zaki, yozma yoki grafik shaklda bilim, ko`nikma va malakalar shakllanishini ta'minlovchi ta'sirlardir. Buni dars davomida og`zaki tushuntirishlar (ya'ni, eshitish) yoki harakatli ko`rsatishlar (ya'ni, bajarish) metodlaridan foydalanib, yaxshi natijaga erishish mumkin.

3.6 Darsda belgilangan vazifalar tahlili. O`qituvchi darsni taxminan rejalashtirar ekan rejadagi sifatlarni bolalarga o`rgatish va ularda shu ko`nikma va malakalarni qanday shakllantirish yo`llarini izlashi lozim. Buning uchun o`qituvchi o`zini o`quvchi o`rnida tasavvur etib, bu ko`nikma va malakalarni birnecha qismlarga bo`ladi. Shundan keyingina o`qituvchi har bir qismni ko`rgazmali tashkil etadi va belgilangan ko`nikmani o`quvchi egallashini ta'minlaydi.

Doktor Fred Jones dars dizayniga (jihoziga) ta'lim samaradorligini ta'minlaydigan yangi elementni qo`shdi. Bu quyidagicha: darsni optimal tashkil etishning birdan bir yo`li talabalarning o`z faoliyatini tanqidiy nazorat qilishi va xatolarini bartaraf eta bilishidir. Faqat shundagina talabalar yanada ko`proq ko`nikmalarni egallaydilar. Ular ongli fikrlash va yanada yaxshiroq tushunishga erishadilar. Buning birdan - bir yo`li “hamroxingga o`rgat” metodini qo`llashdir.

Ta'lim maqsadlarini aniqlash sohasida maslahatlar. Darsda maqsadni belgilashdan oldin o`qituvchi o`quvchilar bajarishi va o`rganishi lozim bo`lgan xatti-harakatlar doirasini aniqlashi zarur. Darsda belgilangan maqsadning afzalligi va boshqalardan farqli tomonlari ajratib ko`rsatilishi kerak.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Xodjayev B.X. Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti. Darslik – T:SANO -STANDART, 2017
2. Xodjayev B.X., Choriyev A., Saliyeva Z.T, Pedagogik tadqiqotlar metodologiyasi, Darslik,- T.:IQTISODIYOT DUNYOSI, 2018.
3. Yulikayeva E., Axmedova M., Qurbonova G., Sh.Tashmetova, Umumiy pedagogika, Darslik,- T.:TDPU, 2012.
4. Pedagogika,// M. To`xtaxodjaevaning umumiy tahriri ostida, Darslik,- T.:O`zbekiston Faylasuflari Milliy jamiyati, 2010.